

MODULLI CHIGIT EKISH SEYALKASI

I.T. Ergashev

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

“Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish”
kafedrası professori

J. Qosimov

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti magistri 2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Modulli chigit seyalkasi universal bo‘lib, tukli chigitni namlangan holda ekish uchun galtaksimon miqdorlagich bilan tuksizlantirilgan hamda kalibrlangan chigitni ekish uchun esa disksimon miqdorlagich bilan jixozlangan. Chigitdan tashqari, makkajuxori va sorgo urug‘larini tekislangan dalaga yoki oldindan tayyorlangan oddiy va usti tekislangan pushtalarga donalab, dona-uyalab, kator oraligi 60 yoki 90 sm kilib ekishga mo‘ljallangan. Don uchun ustiriladigan makkajuxorini 70 sm li kator oraligiga ekadi.

Kalit so‘zlar: Chigit seyalkasi, makkajo‘xori, urug‘, gerbid, tayanch g‘ildirak, modulli chigit, don, tuproq, kalibrlangan chigit, donalab ekish, seyalka urug‘, qator oralig‘i, disk.

АННОТАЦИЯ

Модульная сеялка универсальна, оснащена депилированным роликовым высевальным аппаратом для влажного посева и дисковым высевальным аппаратом для калиброванного посева семян. Помимо семян, семена кукурузы и сорго можно высевать в выровненное поле или в заранее подготовленные простые и выровненные загоны по одному с междурядьями 60 или 90 см. Кукурузу, выращиваемую на зерно, сажают с междурядьем 70 см.

ABSTRACT

The modular seeder is universal, equipped with a depilated roller sowing for wet sowing and a disc sowing unit for calibrated sowing of seeds. In addition to seeds, corn and sorghum seeds can be sown in a leveled field or in pre-prepared simple and leveled paddocks one at a time with row spacing of 60 or 90 cm. Corn grown for grain is planted with row spacing of 70 cm.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida qarorlari bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, fermerlarga va qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga katta xizmat qilmoqda. Masalan, 2023-yilda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab quvvatlashning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”¹ qarorida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta‘minlash va narxlar barqarorligini saqlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Respublikada 2023-yil hosili uchun asosiy maydonlarning 3,2 mln gektar, takroriy maydonlarning 783 ming gektar, bog‘-tok qator oralarining 140 ming gektar, dala chetlarining 34,6 ming gektar, lalmi yerlarning 373 ming gektar maydoniga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish rejalashtirish belgilandi. Fermerlarga subsidiya va kredit ajratish orqali katta imkoniyatlar berildi. G‘alla ekish bo‘yicha yer maydonlar kengaytirilish haqida qaror qabul qilindi². Yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda qishloq xo‘jaligida tub burilishlar amalga oshirilishiga sababchi bo‘lyapti. Xususan zamonaviy texnologiyalar orqali ekish ishlari amalga oshirilyapti. Jumladan paxta ekish ishlaridagi o‘zgarishlar ham shular jumlasidandir.

Modulli chigit seyalkasi universal bo‘lib, tukli chigitni namlangan holda ekish uchun g‘altaksimon miqdorlagich bilan tuksizlantirilgan hamda kalibrlangan chigitni ekish uchun esa disksimon miqdorlagich bilan jixozlangan. Chigitdan tashqari, makkajuxori va sorgo urug‘larini tekislangan dalaga yoki oldindan tayyorlangan oddiy va usti tekislangan pushtalarga donalab, dona-uyalab, kator oraligi 60 yoki 90 sm kilib ekishga mo‘ljallangan. Don uchun ustiriladigan makkajuxorini 70 sm li kator oralig‘iga ekadi³.

Seyalka urug‘ ekish bilan birgalikda sug‘orish juyaklarini ham oladi, kator yon tomonlariga o‘g‘it soladi. Ekilgan urug‘lar atrofiga gerbitsid eritmasini purkaydi.

Modulli chigit seyalkasi kator oralig‘i $v_k=60$ sm li, 4 katorga eksa, har bir ekspluatatsion soatiga 1, 2 gektar, $v_k \geq 90$ sm bo‘lgan-da esa 1,8 gektargacha urug‘ kadashi mumkin (ishchi tzlik $V_i=6...s10$ km/soat gacha). Sharoitga qarab, chigitni 3...8 sm chuqurlikda kumib ketadi. Tuksizlantirilib, kalibrlangan chigitni $v_k=60$ sm kator oraliKida gektariga 160...330 ming dona, $v_k=90$ sm bo‘lganda


¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son [qarori](https://lex.uz). <https://lex.uz>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son [qarori](https://lex.uz). <https://lex.uz>.

³ A. Xamidov. *Qishloq xo‘jalik mashinalarini loyixalash*. Toshkent, 1994. B-124.

111...222 ming dona eka oladi. Tukli chigitni namlangan holatda ekishda esa $v_k=60$ sm da 250...500 ming dona, $v_k=90$ sm kator oraligida esa 166...333 ming dona ekib berish imkoniyatiga ega. Donalab ekishda, kataklar soni 64 bo'lgan disk ishlatilsa, har bir metr uzunlikka 10...30 dona ekadi. Tukli chigitni esa katorlab — 15...35 dona eka oladi. Uyalab ekishda har bir uyaga tuksizlantirilgan chigitni 1 dona ekadi. ± 1 yoki $3 \pm (24$ katakli disk ishlatilsa), 2 Modulli chigit seyalkasining umumiy ko'rinishi 90- rasmda ko'rsatilgan. Har bir qator uchun aloxida sektsiya 1 xizmat kiladi. Seyalkaga seyalkaning brusi 10, traktorga osish moslamasi 3, ekish sektsiya 1 lar, harakat yuritmasi 9, iztortkich 2 va 6 lar, yoruK kaytargich 7, gidrosistema 5, taranglash moslamasi 13, kardanli uzatma 14, tusik 12 lar, tozalagich 11 lar o'rnatilgan¹.

Rasmda galtaksimon miqdorlagichli ekish sektsiyasining tuzilishi kuyidagilardan: galtaksimon miqdorlagich 8 va unga harakat beruvchi tayanch g'ildirak 10, harakatni uzatuvchi kardanli val 7, ekkich 3 ning tuproqqa botishini sozlagich 2, ekilgan urug'ni kumgich 4, zichlovchi g'ildirakcha 5 lardan iborat bo'lib, ular kundalang brus 9 ga biriktirilgan².



Modulli chigit seyalkasining umumiy ko'rinishi

¹ Shoumarova M, Abdillaev T. *Qishloq xo'jalik mashinalari*. Toshkent, O'qituvchi, 2000. B-76.

² M.Shoumarova, T. Abdillaev. *G'alla kombayni va paxta terish mashinalari*. Toshkent, 2000 B-93.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Modulli chigit ekish seyalkasi qishloq xo‘jaligida ahamiyati yuqoriligi Seyalkani nafaqat chigit ekishda balki sargo va makkajoxori urug‘larini ekishda va uning boshqa seyalkalardan farqi urug‘ ekish bilan birgalikda sug‘orish juyaklarini ham oladi, qator yon tomonlariga o‘g‘it soladi. Ekilgan urug‘lar atrofiga gerbitsid eritmasini purkashligi urug‘ning nobut bo‘lmasdan qad rostlashiga tezda o‘z natijasini ko‘rsata olishda dehqonlarimizning og‘irini yengillashtirdi. Shu bilan birgalikda yurtimizdagi dehqonchilik unumdorligini oshiradi. Fermerlarning dala ishlarini bajarishda qulayligi va hosildorlik yuqoriligi ularni dehqonchilik ishlarining keng rivojlantirishga bo‘lgan sayi-harakatlarini yanada kengroq harakat qilishlariga imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-sonli qarori. <https://lex.uz>.
2. A. Xamidov. Qishloq xo‘jalik mashinalarini loyixalash. Toshkent, 1994.
3. Shoumarova M, Abdillaev T. Qishloq xo‘jalik mashinalari. Toshkent, O‘qituvchi, 2000.
4. M.Shoumarova, T. Abdillaev. G‘alla kombayni va paxta terish mashinalari. Toshkent, 2000.
5. Klenin N.I. Sel skoxozyaystvenno‘e i meliorativno‘e mashino‘. Moskva, 1980